

**ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES**

Ra'no Toshniyozova

(Toshkent, O'zbekiston)

ranotoshniyozova.77@bk.ru

**Sinergetikaning badiiy asarlarni tadqiq
etishdagi ahamiyati**

Abstrakt

Maqolada sinergetikaning asosiy tamoyillari yoritilgan. Fanning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan sinergetikaning tahlil predmeti tartibsiz, ehtimoliy, tasodifiy xususiyatga ega murakkab moddiy va ma'naviy tizimlar bo'lib, konseptual metaforalar sifatida qaraladigan sinergetik kategoriyalar turg'un ilmiy tushunchalarni qayta nomlashga va anglashga chorlaydi. Turli turdagi ob'ektlarning yaxlit guruhiga nisbatan umumlashtiruvchi metaforik tavsif beriladi. Bunday metaforalarga attraktor, repeller, tartib mezonlari, bifurkatsiya kiradi.

Sinergetika nazariy-metodologik yondashuv, olamning universal ilmiy paradigmasi bo'lib, uch soha kesishmasida yaxlitlanishi natijasida yaraladi va rivojlanadi: nochiziqliq modellashtirish, amaliy falsafa va ma'lum bir fan sohasidagi bilimdonlik. Sinergetik metod badiiy matn ontologik poetikasi talqini modellarini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Murakkab tizimlardagi beqarorlik, zidliklar xususiyati sinergetik tadqiqotlar uchun asos bo'lib bormoqda. Bunday tizimning xususiyatlariga muvofiq keladigan badiiy matnlar talqini borliqning umumiy qonuniyatlarini qo'llashni taqozo etadi. Sinergetik kontekstda ma'noning o'z-o'zini yaratishi, tartiblashi masalasi o'rganiladi. Badiiy matn bilan resepiyentning muloqoti jarayonida murakkab tizimning dinamik holati aniqlashtiriladi. Matnning shakllanishi, o'qimishlilik, mavjudligining sinergetik tamoyillari borki, ushbu tamoyillar borliqning barcha tizimlari uchun umumiy bo'lgan universal qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, sinergetik aspektlar, matnshunoslik, metodologiya, falsafiy-badiiy tafakkur, bifurkatsiya, fraktallar, taboyi.

Muallif haqida: *Toshniyozova Ra'no Tohirovna* – mustaqil tadqiqotchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Iqtibos uchun: Toshniyozova, R. T. 2019. "Sinergetikaning badiiy

Kirish

Badiiy asar ma'lum bir madaniy muhit voqeligini uzatuvchi omil bo'lishi bilan birga, unda shaxsning intellektual qiyofasi aks etadi. Bugungi kunda rivojlanishning yangi yo'llari, yangi vositalariga ehtiyoj sezilmoqda. Badiiy adabiyot sohasida badiiy asar muallifi va asar matni hamda kitobxon tushunchasi bilan bir xil ahamiyatli bo'lib bormoqda. Fanning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lgan sinergetikaning tahlil predmeti tartibsiz, ehtimoliy, tasodifiy xususiyatga ega murakkab moddiy va ma'naviy tizimlardir. Ularni o'rganish biz ilgari anglamagan qonuniyatlar asosida rivojlanishini namoyon qiladi. Hatto badiiy matn elementlarining o'z-o'zini rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi, ichki munosabatlarida tasodifiylik xususiyati mavjudligi ma'lum bo'ldi. Ushbu jarayonda ijod mohiyati tagqatlamlarini bilish metodlari yaratildi. Ilmiy sohalar rivoji fanlararo chegarani inkor etayotgani, endi fanlar emas, balki muammolar yuzasidan ixtisoslashish lozimligini anglatadi. Sinergetikaning umumlashtiruvchi jihati unda muhokama, tahlil qilishning umumiy metodlari mavjudligidir. Sohaning asoschilaridan biri nemis fizik-nazariyotchisi G.Xaken (1961-yili ilmiy iste'molga kiritgan) fikricha, tizimlarning shakllanishi, mavjudligi va inqirozining asosida "tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar yotadi".

Demak, sinergetika – ochiqlik, tizimlilik, nochiziqlik, beqarorlik va o'z-o'zini tashkillashtirish g'oyalari bilan bog'liq. U tashqaridan kirib kelayotgan energiya, axborot oqimi sabab rivojlanayotgan barqaror holatga ega tuzilmani o'rganadi. Sinergetikaning asosiy g'oyalari fanlararo tavsifga ega bo'lib, dialektika kabi ilm-fanning eng katta yutuqlaridan hisoblanmoqda.

Aytish joizki, sinergetika o'z qonuniyatlarini aynan qo'llashni talab qilmaydi. Mantiqiy aniqliklar kiritishda sinergetikaning yondashuvi o'ziga xos. Konseptual metaforalar sifatida qaraladigan sinergetik kategoriyalar turg'un ilmiy tushunchalarni qayta nomlashga, qayta anglashga chorlaydi, turli turdagi ob'yektlarning yaxlit guruhiga nisbatan umumlashtiruvchi metaforik tavsif beriladi. Bunday metaforalarga attraktor, repeller, tartib mezonlari, bifurkatsiya kiradi. Ularning turli sohalarda qo'llanilishi soha doirasida o'ziga nisbatan izohlarni talab etadi. Sinergetik paradigmaning eng muhim xususiyati uning evristiklik xususiyatidir. Har bir fanning

evristiklik darajasi uning tadqiq etilayotgan ob'yekt xususiyati bo'yicha to'liq bilimga ega bo'lmaganlik vaziyatida gipotezalar taklif eta olishi, analoglar topishi hamda shu asosda bir qator yangi modellar yaratish imkoniyati bilan belgilanadi. Albatta, ushbu analoglarning samaradorligi ehtimoliy darajada. Evristiklik me'yori ana shunday ehtimoliy vaziyatning chegaralarini topa olishida ham namoyon bo'ladi. Har qanday tizim hech qachon to'liq tavsifga ega bo'lolmaydi, tizim tarkibidagi tushuncha va atamalar bir-birini inkor etmasligi mumkin emas [Pichtownikowa 2014, 36].

Sinergetikaning asosiy tamoyillari

Majoziy darajadan tizimli-struktur ontologiyaga, dinamik tizim modelini shakllantirishga o'tish faqatgina sinergetik tamoyillarni kelishilgan holda qo'llash bilan erishish mumkin. Bu esa faylasuflar, ma'lum bir soha mutaxassislari hamda matematiklarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, hozircha ushbu jarayon san'at darajasida, ya'ni qayta aloqaga asoslangan kommunikativ texnologiya emas [Буданов 2009, 23]. Sinergetik tushuncha va kategoriyalarni fraktal tasavvurlar bilan boyitish lozim. Bu turli ilmiy paradigmalarning o'zaro muloqoti natijasida turli ko'lamda bir-biriga o'xshash modellarning joriylanishidir. Albatta, har bir paradigma o'z sohasida qayta ishlangan evristik tavsifga ega bo'ladi. Demak, sinergetika nazariy-metodologik yondashuv, olamning universal ilmiy paradigmasi bo'lib, uch soha kesishmasida yaxlitlanishi natijasida yaraladi va rivojlanadi: nochiziqli modellashtirish, amaliy falsafa va ma'lum bir fan sohasidagi bilimdonlik. Uning asosiy tamoyillari quyidagilar:

a) tabiat bir qancha ko'rinishga ega ochiq, nochiziqli tizimlarning turli darajadagi iyerarxik tuzilmasi: dinamik barqaror, moslashuvchan, ancha murakkab evolyutsion tizimlar;

b) ular o'rtasidagi aloqa-munosabat tartibsiz (xaotik), turli darajadagi teng bo'lmagan holatlar hisobiga ro'yobga chiqadi;

c) notenglik yangi tuzilma, yangi tartib, yangi tizim, ya'ni rivojlanishning zaruriy sharti;

d) nochiziqli dinamik tizimlar birlashganda yangi tuzilma qismlar miqdori bilan teng holda bo'lmaydi, balki boshqa bir darajadagi tizimni yaratadi;

e) rivojlanayotgan tizimlar doimo ochiq bo'lib tashqi muhit bilan ma'lumot almashinib turishi hisobiga ularda tartiblilik va o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlari ro'y beradi;

f) tizimdagi yuqori darajadagi zid holatlar tashqaridan ta'sir

etuvchi omillarni qabul qilishni boshlaydi (o'zaro tenglik holatida qabul qilmagan bo'lar edi);

g) tenglikdan uzoq holatda qismlarning qisqa muddatli ikkilanishi, ya'ni bir holatdan nisbiy uzoq muddatli tizim tartibiga attraktorga (ing. *attrakt* – o'ziga jalb qilish, tortish) o'tishi yuz beradi. Tizimning attraktorlardan qaysi birini tanlashini oldindan bilib bo'lmaydi [Буданов 2009, 47]. Tizimdagi tartibsizlikning ma'lum bir tartib mezonlariga bo'ysunishi ham uning ichki imkoniyatiga, qayta aloqaga asosan sodir bo'ladi.

“Murakkablik tizimning ko'p tarmoqli, sabab-oqibat aloqadorliklarining bir-biriga chigal bog'lanib ketganligidadir. Ko'p tarmoqlangan tizimda sabab-oqibat ketma-ketligi yo'nalishlari turli tomonlarga tarmoqlanib, bir-biri bilan tutashib ketadi. Buning oqibatida turli sabab-oqibat zanjirlari o'zaro kesishib, tasodifiy hodisalar ro'y berish imkoniyati kuchayib ketadi” [Тыпаев 2017, 8]. Tizimlardagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonini sinergetika quyidagicha tushuntiradi: ochiq tizim o'zaro zid muhitda bo'lishi kerak. Tenglik muhiti va tashqi energiya oqimining yetarli darajada emasligi sababli har qanday tizim vaqti kelib o'z holatini o'zgartirishdan to'xtaydi (O'z-o'zini tashkillashtirish – ochiq tizimdagi bir xil darajadagi elementlarning tashqi maxsus ta'sirsiz ichki omillar hisobiga (xaosdan) tartiblanish jarayoni. Natijada yuqori sifat darajasi birligi yuzaga chiqadi). Islom nazariyotida bunga quyidagicha izoh berilgan: narsalarning xossalari - taboyi' butun olamda mavjud. Har bir jismoniy ibtido, ya'ni hissiy organlar yordamida his qilinadigan barcha narsalarda u bor. U butun borliqda bo'lgani kabi kichik olam bo'lgan insonda ham bor. Ularning xossasi aslida bir-biriga intilish emas, aksincha, bir-biridan qochishdir. Taboyi'lar qarama-qarshi kuchlardir... Qoida bo'yicha, ularning birini ikkinchisi ustiga qo'ysang, ular birikish o'rniga, o'z tabiatiga ko'ra, biri ikkinchisini itaradi va qarama-qarshi harakatda bo'ladi. Shunday ekan, ular butun koinotdagi tartibotni izdan chiqarib yuborishi kerak edi. Demak, olamdagi tartib va munazzamlilik tashqi sababning mavjudligidan dalolat beradi... (U) jismlarni, mohiyatiga ko'ra, o'ziga qabul qilish mumkin bo'lmagan xossalarni qabul qilishga majbur qiladi... bir-biriga qovushtiradi va ulardagi o'zgarishlarning tartibli hamda maqsadli ravishda amalga oshishini nazorat qiladi. Ularning bir munazzam butunlikka uyg'un holda birikuvi komil ilm, cheksiz qudrat va lutf hamda hikmatga ega” [Сирожиiddинов 2008, 45].

Zamonaviy ilmda taboyi' fraktallar sifatida izohlanishi mumkin. Fraktallar “tenglik holatida bo'lar ekan, ular bir-biriga nisbatan

mustaqil faoliyat yuritadi. Bunday mustaqillik holatida ular o'z-o'zini tartiblashga loyiq emas. Lekin ushbu tizim tashqi muhit bilan o'zaro energetik ta'sir ostida notenglik (xaos) holatiga o'tsa, genlar o'zaro kelishishga o'tadi. Bifurkatsiya nuqtalarida ularda o'zaro aloqa-munosabat hosil bo'ladi, natijada dissipativ struktura yaraladi. Shuning uchun bunda tashqi muhitga nisbatan yuqori darajada ta'sirchanlik kuzatiladi. Natijada o'z-o'zini tashkillashtirish (tartib) holati yuz beradi, bu esa noteng jarayonlarning ichki xususiyati hisoblanadi [Буданов 2008, 121]. Хаос, tartibsizlik yangi tartibni yaratadigan ijodiy kuchga ega [Бранский 1999, 118]. U tizimning yangi sifat darajasiga o'tishidan darak beradi.

Murakkab tizimlardagi beqarorlik, zidliklar xususiyati sinergetik tadqiqotlar uchun asos bo'lib bormoqda. Sinergetik tizimning xususiyatlariga muvofiq keladigan badiiy matnlar talqini borliqning umumiy qonuniyatlarini qo'llashni taqozo etadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari matnini talqin etishda sinergetik qonuniyatlarning ahamiyatli ekanligi ushbu ochiq, notekis dinamik tizimning (badiiy matnning) murakkabligi hamda uning o'z-o'zini rivojlantirishi (ya'ni asardan axborot olish mexanizmi), tartiblashining ilmiy paradigmalarini yaratish zarurati bilan belgilanadi. Sinergetikaning universal tamoyillari har bir soha muammolari yechimida qo'llanuvchanligi bilan muhim ahamiyatga ega. Matnning ontologik poetikasi modellari tadqiqida sinergetika tamoyillarini o'zaro mutanosiblikda qo'llash matnning majoziy darajasidan dinamik barqaror, o'z-o'zini yangilovchi, kommunikativlik xususiyatiga ega tizimli ontologiyasiga yetaklaydi, dinamik tizim modelini yaratadi, rivojlanishning universal nazariyasi sifatida har qanday yangilikning yuzaga kelish mexanizmlari, talqinning yangi sifat darajasiga ko'tarilishining yagona asosini belgilab beradi.

Ontologik poetikaning sinergetik asoslari

Avvalo, badiiy matnning sinergetik jihatlarini aniqlashtirish lozim. Sinergetik kontekstda ma'noning o'z-o'zini yaratishi, tartiblashi masalasi o'rganiladi. Badiiy matn bilan resipiyentning muloqoti jarayonida murakkab tizimning dinamik holati aniqlashtiriladi. Matnning shakllanishi, o'qimishliligi, mavjudligining sinergetik tamoyillari borki, ushbu tamoyillar borliqning barcha tizimlari uchun umumiy bo'lgan universal qonuniyatlariga bo'ysunadi. Xo'sh, rivojlanayotgan tizimning (matnning) o'z-o'zini tartiblashi nimalarda ko'rinadi?

Sinergetik tartiblanishning quyidagi shakllarini keltirish

mumkin:

a) *kompozitsion tartiblilik* - tizim qismlarining o'zaro mutanosib joylashuvi;

b) *tuzilmaviy tartib* - tizim qismlari o'rtasida aloqadorlikning uyg'unligi;

d) *funksional tartib* - tizim qismlarining o'z vazifalarini yuqori darajada bajarishi;

e) *integrativ tartib* - tizimning o'z qismlarini yaxlitlikda birlashtirib turish tartibi;

f) *siklik tartib* - jarayonlarning ketma-ketligi, izchilligi, tadrijiyligi;

g) *proporsionallik* - qismlar o'rtasidagi miqdoriy mutanosiblik;

h) *uyg'unlik* - tizim qarama-qarshi tomonlarining bir-birini rivojlantirishiga qaratilgan tartib [Тыраев 2017, 121].

Matn sinergetikasida rivojlanuvchi tizim mavjudligining asosiy tamoyillari uchta: *notekislik, ochiqlik, beqarorlik*.

Matnning *notekisligi*, bir tomondan, asarning g'oyaviy-uslubiy yo'nalishi va estetik maqsadini tanlashda muallifning erkinligi, ikkinchi tomondan, kitobxon (resipiyent)ning asarni sharhlashdagi erkinligi bilan izohlanadi. "Tajriba ortgan, yosh ulg'aygan sari resipiyent uchun badiiy asar o'zining yangi qirralarini namoyon etadi. Masalan, bir umr faqat bir muallif ijodi bilan shug'ullangan adabiyotshunos ham uning asarini ikki-uch yil o'tib takror mutolaa qilsa, har gal yangi ma'no topishi mumkin. U bunday ma'no va fikrlarni avval o'qiganida nima uchun ko'rmaganiga hayron bo'ladi. Demak, har bir kishi o'qigan asarini o'zining muayyan davridagi bilimi va tasavvuri darajasida tushunadi" [Эркинов 2018, 31]. Matn talqinidagi notekis (nochiziq) vaziyat uning qism (ma'no)lari o'rtasidagi "tebranishlarni", og'ishlarni, beqarorlikni kuchaytiradi, kichik farq kattalashadi hamda evolyutsiyaning aniq bir yo'lini belgilaydi. Nochiziqlilik matn talqini jarayoni yo'nalishini kutilmagan o'zgarishlarga olib keladi, tasodifiy tanlov asosida rivojlanadi.

Ikkinchi tamoyil asar va kitobxon o'zaro suhbatida jarayonida sharhlanayotgan matnning muhokama uchun *ochiqligiga* tayanadi. Ochiqlik tamoyili asar o'qilishi jarayonida matn o'zini turli rakurslarda namoyon etishi mumkinligidan kelib chiqadi. "Jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy yangilanish va o'zgarishlar asarning yangi talqini paydo bo'lishiga" [Эркинов 2018, 31], kitobxonning asar bilan suhbatida natijasida matn uning madaniy olamining bir qismi bo'lib qolishiga olib keladi. Matnning ochiqligi uning ma'noviy, tuzilmaviy, funksional va uslubiy jihatdan egiluvchanligini bildiradi.

Diskurs sinergetikasini N.F.Alefirenko shunday izohlaydi: “Diskursni yaratuvchi barcha mavjud faktorlarning o‘zaro ta’siri natijasida diskursiv muhitning ontologik va funksional jihatdan o‘z-o‘zini tashkillashtirishiga yo‘naltirilgan “o‘zaro quvvatlanishi va singishi” ro‘y beradi va matn tarkibidagi ma’nolarning bir-biriga ta’sirini aniqlashtiradi” [Alefirenko 2009, 5-6]. “O‘zaro quvvatlanish va singish” matnning bifurkatsiya nuqtalarida *beqarorlik* muhitini yaratadi. Kitobxon tomonidan yaratilgan suhbat (diskurs)ning beqarorligi asosida subyektiv (kitobxon) va obyektiv (davr, madaniyat) xususiyatga ega asarning turfa xil sharhlari, talqinlari yotadi. Kitobxon matnni o‘qishi yakunida o‘z talqinini o‘zida tasdiqlaydi. Matniy tizim o‘z-o‘zini tashkillashtiradi. Yangidan o‘qish matnni yana barqarorlik holatidan chiqaradi. Matn yana o‘z-o‘zini tashkillashtiradi va shu tariqa evolyutsiya jarayonlarini boshidan o‘tkazadi. Evolyutsiya yo‘llari esa cheksizdir. Matnning beqarorligi uning yangi sifat darajasiga, yangi tartibga o‘tishi uchun zaruriy sharoitdir. Ta’kidlash joizki, barcha sharhlarda asarning ma’noviy va tuzilmaviy asosi, belgilari saqlanib qoladi, faqat subyektiv elementlar o‘zgaradi. Tashqi ta’sir ostidagi ushbu holat simmetriklik - asimmetriklik deyiladi [Швейцер 2009, 216].

Talqinda sinergetik jarayonlar

Asar kompozitsion tuzilishining murakkabligi uning asar ma’nosi, hajmi, til xususiyatlari bilan aloqadorligini hamda badiiy matnning sinergetikligini bildiradi. Sinergetik matn konstruksiyasi (borlig‘i) o‘z tamoyillariga ega. Bular gomeostatiklik¹ hamda iyerarxiklik. Gomeostatiklik tamoyili orqali tizimning o‘ziga jalb qiluvchi (attraktor) barqaror xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Gomeostatiklik bu matnning tugalligi va yakunlanganligidir [Асратян 2016, 65].

Iyerarxik tuzilmaning asosiy ma’nosi shundaki, quyi daraja uchun yuqoridagi qism kosmik tarkib, yuqoridagi uchun quyi qism xaosning tarkibsiz elementi, qurilish materiali (m: fonema, morfema, so‘z, gap, matn ...). Iyerarxiklik tamoyili til (yoki kompozitsion)

¹ *Gomeostatika* — kibernetikaning yangi tarmog‘i bo‘lib, tizimning ichki zidliklarini o‘rganadi. *Zidlik* — tizim rivojlanishining dialektik asosi sifatida u tizimga ichki va tashqi o‘zgarishlarga nisbatan ta’sirchanlik imkoniyatini berish bilan birga, tizimning paydo bo‘luvchi to‘siqlarga nisbatan barqarorligini ham ta’minlaydi. Barqarorlik ziddiyatlarni shunday boshqara olish holatiki, tizimda (uning mavjudligini ta’minlovchi barcha zaruriy mezonlarga ko‘ra) yuzaga kelgan o‘zgarish, to‘siqlarga nisbatan moslashuvchanlik va to‘ldiruvchanlik asosida barqarorlik yuz beradi. Ushbu hodisa biologiyada gomeostaz nomini olgan. *Gomeostaz* — ichki muhitning dinamik doimiyligini (barqarorligini) saqlab turuvchi hodisa.

qatlamlarining o'zaro bir-birini ta'minlashini ham anglatadi: til birliklari vazifalarini o'z darajasida emas, balki yuqori qatlamda namoyon etadi. Asarning asl, botiniy ma'nosiga nisbatan kuchli va zaif nuqtalar iyerarxiyasini inobatga oladi. Matnning sinergetik tahlili jarayonida unda mavjud kuchli va zaif nuqtalar ajratiladi. Matn tuzilmasining invarianti butun va qism iyerarxiyasi, matndagi kuchli va zaif nuqtalar (o'zaro zid istilohlar, tushunchalar) munosabatlari matnning uyg'unlik, *mutanosiblik markazi* (MM) hisoblanadi. MM ilohiy taqsimot deb ham yuritiladi. Matnning keyingi kuchli nuqtalari muqaddima, xotima, asar nomi va epigraf. Matnning kuchli va zaif nuqtalari iyerarxiyasi o'z-o'zini shakllantiruvchi omillardan biridir. MM va matnning boshqa kuchli nuqtalari asarning asl ma'nosini ifodalash vazifasini bajaradi. Kuchli nuqtalar matn tuzilmasida *attraktor* vazifasini bajaradi va matn talqinida eng samarali nuqta hisoblanadi. Ular axborotni eslab qolishda hamda matn mazmuniy tuzilmasining shakllanishida yuqori o'rin tutadi.

Matnning semantik muhiti bir vaqtning o'zida bir nechta raqobatlashuvchi senariylarga asosan istilohlar yaxlitlashuvi natijasida o'z-o'zini tashkillashtiruvchi mikromavzular tizimini namoyon etadi va bu holat katta mavzu bilan birlashishi bilan yakunlanadi. Mikromavzular matn dasturining gaplar vositasida shakllangan eng kichik birligi darajasidir. Ushbu mikromavzular makromavzuga aylanib, o'z o'rnida asarning asosiy mavzusini yaratadi. Shuningdek, takrorlar ham matnning kuchli nuqtalarida ma'no taqdimotida katta ahamiyatga ega. Kuchli nuqtalarning ahamiyatli jihati yana shundaki, ular asarning kognitiv va hissiy axborot beruvchi markazi bo'lishi bilan birga konseptual va estetik vazifalarni ham bajaradi [Москалчук 2002, 8].

Kompozitsiya qatlamlari o'rtasidagi qarama-qarshi holatlar uning sinergetik tabiatidan darak beradi va ushbu munosabatlar modelini anglash asar poetik ontologiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiya tarkibining iyerarxik darajalari o'rtasidagi sinergetik munosabatida, avvalo, ushbu yondashuvning beqiyos stimuli sifatida qarama-qarshiliklar muammosi namoyon bo'ladi. Iyerarxik tizimdagi har bir darajaga xos zidliklar muammosini yechishda kuchli nuqtalar deb yuqorida yuritilgan sinergetik qism, jumla, so'zlar, birikmalar ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Turli o'rinlardagi bir xil sinergetik belgi, istilohlar, jumalar bitta ob'yektga ishora qiladi. Kompozitsiyaning turli qatlamlarida belgi-markerning yuki ortib boradi, darajalanadi, shu sababli kompozitsiyaning qatlamlari o'rtasidagi farqni ham namoyon etadi. Markerlarni bel-

gilash erkin jarayon, shuning uchun ular tartib mezonlari ham bo'lishi mumkin. Markerlar kompozitsiya qatlamlaridagi zidliklarni o'zida namoyon etadi, o'zida birlashtiradi va bir vaqtda ularning muammosi yechimini beradi. Asar kompozitsiyasi tushunchasi ko'p o'lchovli bo'lib, unda bir qancha diskurs (aloqa-munosabat) turlari borki, kompozitsiya tarkibi faqatgina uning verbal qismlari bilan belgilanmaydi. Matn diskursi sinergiyasiga *kontekst-matn-matnosti* uchlik modeli asosida, matn kompozitsiyasiga arxitektonika, makrosintaksis jihatidan yondashish ham kuzatiladi [Pixtovnikova 2013, 93-98]

Badiiy asar ontologik (tub) ma'nolarining aniqlanishi undagi sinergetik jarayondan darak beradi. "Faylasuf Z.Freyd yozuvchi S.Sveyg qalamiga mansub novellalarni psixanalitik talqin etish yo'li bilan muallif aslo kutmagan, inson ruhiyati, ong osti jarayonlari bilan bog'liq g'alati ma'no chiqaradi. Buni o'qigan muallif bunday fikr aslo xayoliga kelmagani, bunday ma'no yoki maqsadni aslo ko'zlamaganini ta'kidlaydi. Holbuki, Freyd talqinida muayyan asos bor edi. Demak, yozuvchi ayrim hayot haqiqatlarini asari zamiriga o'zi bilmagan holda singdirishi mumkin ekan. Chunki badiiy ijod irratsional hodisadir" [Эркинов 2018, 34].

Z.Freyd ongosti ma'nolarini *U* (Id) deb, K.Yung *jamoaviy ongosti arxetiplari* sifatida, L.Vitgenshteyn *Oliy* (Hoheres), ifodalaymaydigan (Unassprechliches) yoki Mistik (das Mystische) kabi so'zlar bilan ifodalagan. Lekin transsendent ma'nolarni ifodalashda til imkoniyatlari chegaralangan: inson fikrini ifodalayotgan til vositalari nisbiy xususiyatga ega [Муратова 2013, 26] Sinergetik yondashuv nazmiy matndagi tub ma'nolarning paydo bo'lish mexanizmlariga yangicha qarash imkonini beradi. Sinergetika asoschilaridan biri G.Xakenning ta'kidicha, murakkab notekis tizimlar holati ular mavjud bo'lgan muhit sharoitlariga bog'liq. Poetik matn uchun bunday muhit quyidagilarda ko'rinadi:

1. *Yaratuvchi idrok*. Matnning lisoniy tuzilmasi shoirning iqtidori va lingvistik intuitsiyasiga bog'liq, shuning natijasida she'r tub ma'nolarining o'z-o'zini tashkillashtirishi ro'y beradi (yoki ro'y bermaydi).

2. *Qabul qiluvchi idrok* poetik matnning yashirin kodlarini ochadi. Muallif yaratgan matnning kitobxon tomonidan qabul qilinish jarayonining adekvatligi uning umumiy xotira hajmiga, bilimiga, tasavvuriga bog'liq. Kitobxon matni hamda muallif matni bir-biriga to'liq mutanosib emas.

Agar matnda birorta obyektiv mazmun, boqiy g'oya yo'q ekan,

unda matnda nima mavjud? Faqatgina sirli tarzda tashkillashtirilgan lisoniy vositalar va uslublar mavjud bo'lib, kitobxon idrokida ma'noning tug'ilishi uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.

3. *Milliy qadriyatlar*: tarixiy, ijtimoiy, tabiiy omillar; ma'lum bir lisoniy madaniyat vakiliga xos xususiyat, holatlar.

4. *Nazmiy matnning intertekstual munosabatlari*.

5. *"Katta vaqt"* (M.Baxtin atamasi). Uning ta'siri muallif va kitobxon o'rtasidagi aloqa va vaqt masofasi mavjudligi sharoitida namoyon bo'ladi: har bir san'at asari ham o'tmish sadolari bilan suhbat quradi, ham kelajakda yangi ma'nolar bilan boyiydi [My-patova 2013, 26].

Sinergetiklik nazariyasida markaziy tushuncha sifatida qaraladigan *tartib mezonlari* atamasi mavjud. Tartib mezonlari (TM) tizimning boshqa elementlari holatini o'ziga bo'ysundiradi. Tilshunoslik (qisman nazm tizimida ham) tizimida ular quyidagilardir: me'yoriy grammatik kategoriyalar, leksemalarning lug'aviy ma'nolari, so'z shakllantiruvchi morfemalar (modellar), sintagmatik munosabatlar va b. Tartib mezonlari barqaror bo'lsa, erkinlik darajasi ko'p bo'lmasa, tizim ham barqaror holatdaligi ayon bo'ladi.

Agar TM tizimni boshqarishdan to'xtasa, natijada ikki holat kuzatiladi:

a) tizim sifat jihatidan o'zgarmaydi, faqat o'zgarishlarga moslashadi;

b) tizim katta miqdordagi erkinlik darajasiga o'tadi, ya'ni tizimda sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Sinergetik yondashuv 4 ta atamaga e'tibor qaratadi. Ular vositasida har qanday badiiy matnning lisoniy qatlamiga va yaxlit matnga tavsif berish mumkin. Sinergetikaning asosiy tushunchalariga quyidagilar kiradi: fraktal, dissipativ tuzilma, bifurkatsiya, attraktor.

Ma'noni aniqlashning fraktal asoslari

Ma'nolarning tartibsiz va tarqoqligi, sochilganligi sabablarini aniqlashning asosi fraktallar bo'lib, biz uni yuqorida *taboyi'* sifatida izohlab o'tgandik. Ular atrof-olamning insonlar tomonidan qabul qilinishining umumiy holda bir ma'noliligiga asoslanadi. "Fraktallar – yaxlitning shunday qismiki, tuzilishi jihatidan boshqa har bir qismga va yaxlit tuzilmaga o'xshashdir. Fraktal tizimning rivojlanish algoritmi, rivojlanishning ehtimoliy yo'llari haqida axborot tashuvchi", keng ko'lamdagi invariantlilik xususiyatlariga ega ob'yektlardir. Ibn Arabiyning islom ontologiyasiga bag'ishlangan "Insho ad-davoir" asarida narsalarning mohiyatiga va mavjud bo'lish

darajalariga ko'ra bergan tasniflarida shunday izohlar mavjud. Unga ko'ra, narsalarning ontologik darajalari uning mazmun-mohiyatiga ta'sir qilmaydi. Olamda turli shakllarda mavjud bo'lsa-da, asosi bitta (a'yon)". Har qanday narsa ontologik darajasidan qat'i nazar, bir ma'noni kasb etadi, o'zgarmaydi. Bu shunday izohlanadi: Yog'och-taxtadan kursi, tobut, minbar yasalgani bilan uning asl xususiyatidan hech narsani kamaytirmaydi ham, ko'paytirmaydi ham. Kursida ham, siyohdonda ham ushbu yog'ochlik (shakl, sifat, miqdor kabi) jihatlari mukammal saqlanib qoladi [Арабий 2013, 60]. (Inson ham olami sug'ro sifatida olami kubroning fraktalidir, uning barcha xususiyatlarini o'zida jamlagan).

Fraktallar (taboyilar) ham shunday xususiyatga ega bo'lib, atama sifatida majoziy tavsifga ega. Matn tarkibidagi fraktal "so'zlar uning yaxlit ma'nosini o'zida qamrab olgan bo'lishi, umumlash-tirishi, syujetning keyingi rivojining sxemasini aks ettirishi mumkin". Shu bilan birga har bir faol fraktal, ma'lum bir tarzda sharhlangan har bir so'z matndagi keyingi so'zlar sharhining variantlarini ifodalaydi va qabul qilinish jarayoni sabablarini aniqlaydi. Shu tariqa rivojlanish jarayonida virtual fraktallarning faollashishi kaosni tartiblashtiradi, barqarorlikni ta'minlaydi. Matnning har bir yangi o'qilishi, yangi sharh ham birlamchi manbaga, avvalgi sharhlarga nisbatan fraktallik xususiyatini namoyon etadi. Sharhlarning, matnlarning (intertekst) o'zaro bir-biriga ta'siri jarayonida ma'nolar kesishmasida yangi ma'no hosil bo'ladi. Shu tariqa har bir matn fraktal tamoyilga asosan bir-birini to'ldirib boradi, intertekstual maydon hosil qiladi (*Tabiatda aynan o'xshash (fraktal) iyerarxik tuzilmalar mavjud. Bulut, koral, gulkaram fraktal o'lchovga ega. Quyosh sistemasining tuzilishi ham atomning tuzilishi bilan aynan o'xshash*).

Til sinergetik tizim sifatida fraktal tamoyillar asosida tashkil etilganligini, xususan, sub'yekt-predikat konstruksiya ham fraktal qurilishga egaligi ta'kidlanadi [Домброван 2006, 54]. Fraktallarning asosiy vazifasi bir istilohning ehtimoliy ma'nolarini ma'lum bir yaxlit ma'noviy guruh doirasida saqlab qolish. Semantik fraktallarga ma'lum bir ma'noning invariantlari atrofida ehtimoliy ma'nolarning guruhlanishini misol keltirish mumkin.

She'riyatda me'yoriy fraktallar doirasi kengayadi, o'zaro joylashuvi o'zgaradi, fikr shakllarining bir fraktaldan boshqasiga o'tish imkoniyati yaratiladi. Fraktallar ma'noviy qatlamini tuzishda semiotik guruhlariga asoslanish mumkin. Fraktallarning bir so'z, ibora doirasida o'zgarishi uning ma'nosining chuqurlashishiga

yoki butunlay o'zgarishiga olib keladi. U yangi matnosti ma'nosini yaratishi mumkin. Agar semantik fraktallarning asosiy vazifasi bir so'zning ma'noviy guruhi tarkibidagi ehtimoliy ma'nolarini yig'ish bo'lsa, fonetik fraktallarning asosiy vazifasi belgining u anglatayotgan ma'nolarning shartli ta'sir doirasini anglatishdir [ma'noga urg'u berishda bir xil tovushlardan foydalanish.

Badiiy matnning ichki aloqadorlik xususiyati, qismlarning o'zaro kelishuvi (kogerentlik) undan asl ma'noni chiqarishda (o'z-o'zini tashkillashtirishda) muhim bo'lib, tizimning yaxlit holda mavjudligini ta'minlaydi. Matn talqinida rivojlanish bo'lmasa, turli axborotlar oqimi bilan boyib turmasa, mavjud tushunchalar, istilohlar (fraktallar, taboyi'lar) bir-biriga nisbatan mustaqil, gipnozga o'xshash holatga tushadi. Aksincha holatda tushuncha, ma'nolar uyg'ona boshlaydi va hamkorlikda, kelishib harakatlanishadi. Aynan hamkorlikdagi faoliyat rivojlantiruvchi fenomen sifatida yuzaga chiqadi. Til birliklarining bunday munosabati natijasida paydo bo'lgan yangi ma'no nazmiy tilda doimo kuzatiladi.

Tizimning o'sib boradigan beqarorlik holati, asardagi bir til birligi doirasidagi so'zlarning turli ma'nolarda joriylanish imkoniyatlari bifurkatsiya nuqtasi deyiladi (Bifurkatsiya (lot. bifurcus) – ikkilangan, noaniqlik, ob'yektning bir shakldan boshqasiga o'zgarishi). Kitobxon talqin etish jarayonida u yoki bu barqaror ma'no-mazmun (attraktor) tomon yo'naladi. Bifurkatsiya tizim harakatlanayotgan yo'l ikkiga ajraladigan nuqtada hosil bo'ladi. Barcha yo'llar teng imkoniyatli bo'lsa-da, bittasi amalga oshadi. Ongosti darajasidagi yaxlitlik tamoyili timsol yoki fikrni barcha mantiqiy qarama-qarshi ma'nolari bilan birga, yaxlit tarzda qabul qiladi. Inson tafakkur mantig'i ham shunda ko'rinadi: berilgan ma'no bilan bevosita uning ma'noviy invariantlarini anglashga intilish. Tig'iz nuqtalar bifurkatsiya maydoni hisoblanadi. Nazmiy tizimda til birliklari doirasida (bi-furkatsiya hududi) yangi ma'noning tug'ilishi fonetik qatlamda (tovushning ma'noga ta'siri), leksik qatlamda (yangi ma'no hosil bo'lishida majoziy vositalarning ahamiyati), sintaktik qatlamda (leksemalarning nostandart muvofiqligi) aks etadi.

Asarning avval yuzaga chiqmagan, mohiyatiga daxldor belgilarini topish va umuman badiiy matn tahlili va talqini yuzasidan tasavvurni, nazmning murakkab tizimini o'rganish rakursini o'zgartirish sinergetik yondashuv vositasida real ahamiyat kasb etadi. Sinergetik matn – bu bir qancha tub, bevosita kuzatilmagan, botiniy, transsendent ma'nolardan iborat bo'lib, ular leksemalar-

ning lug'aviy ma'nolaridan aniqlanmaydi hamda matnosti notekis munosabatlari va jarayonlari majmuini namoyon etadi. Bu esa badiiy matn poetikasi tahliliga ontologik yondashish zaruratini tug'diradi. "Vahdat ul-vujud" ta'limoti zamirida yotgan yagona borliqning bir-biridan ajralmas ikki tomoni bo'lgan g'ayb va shuhud olami o'rtasidagi ontologik hamda irfoniy taqsimoti va tizimiga asoslanib Alisher Navoiy ijodining ichki mantig'ini, falsafiy mazmundagi intuitiv va tizimli dunyoqarashini belgilash ulug' mutafakkirimiz badiiy tafakkurini anglashda muhimdir. "Xamsa" dostonlari yaxlit matnining ontologik qatlami makrosintaksisiga, sub'yekt-predikat konstruksiyasiga tayanilgan holda dostonlarning hamd va na't qismlarini zotiy (sub'yekt) talqin jihatidan *tanzih-tashbih* modeli asosida, keyingi qismlarni esa fe'liy (predikat) talqin jihatidan *foil-fe'l-maf'ul* modeliga tayanib talqin etish, ushbu modellarni sinergik jarayonning tartib mezonlari sifatida tatbiq etish mumkin.

Ontologiyada metakategoriyalar sirasiga kiruvchi javhar va jarayon, harakat va moddiylik, fazo va vaqt, imkoniylik va zaruriylik munosabatlari juftligi talqini xususida muxtasar tarzda to'xtalish lozim. "Vahdat ul-vujud" ontologik ta'limotining *tanzih-tashbih* modeli asosidagi talqinida Alloh Zotining (Ahadiyat, Huviyat) kasrat olamiga nisbatan mutlaq farqi (*tanzih*), shuningdek Uning mulk olami bilan o'xshashligi (*tashbih*) ta'kidlanadi. Bunda keltirilgan *zidliklarni* yaxlit idrok etishning badiiy ifodasi tahlili inobatga olinadi.

Foil-fe'l-maf'ul ontologik modeli talqinini majoziy aks ettiruvchi *ma'shuq-ishq-oshiq*, *naqqosh-naqsh-manqush* kabi shakllari tarkibidagi *fe'l* (*ishq*, *naqsh*-masdar) tushunchasi *amal* ma'nosi-da kelib ontologik jihatdan moddiylik aspektlari ta'siriga kirmagan, mavhum, amalga oshmagan, vaqtdan tashqari, kasrat olami uchun imkoniylik hisobidagi ontologik darajani anglatadi. *Vaqt* jihatidan *amal* kasratda turfa xil va shaklda namoyon bo'ladi, harakatga o'tadi (*maf'ul-harakatlanmish-mulk olamida*). *Amal* (*ishq*, *naqsh*) *Foil* (Harakat sohibi - Alloh)ning ilmi ob'yekti (a'yoni sobita) bo'lib, harakatdan tashqari, ma'dum holati hisoblanadi. *Fazo* substansiya (javhar, mohiyat)ning, *vaqt amal*ning ko'paytmasini (kasrat bo'lishini) ta'minlaydi. Moddiyat *fe'l* (*amal*)da o'z imkoniyatlaridan tashqari holatda bo'ladi [mosuvo; transsendent holatda; a'yoni sobita]. Ushbu mexanizmni yurituvchi Foil Alloh bo'lib, maf'ul tomonidan U haqda tafakkur va tasavvur (xayol) qilish bilan amalga oshadi. *Fe'l* (*ishq*, *naqsh*) *Foil* va *maf'ul* munosabatini ta'minlaydi. Sinergetik paradigmaga tayanib shoirning islomiy Nizomga asoslangan shaxsiy-individual kechinmalarini, uning ilohiyot, Yagona

borliq haqidagi (salaflaridan farqli) o'ziga xos idrokiyotini talqin va tahlil etish imkoni yaraladi. Hayratlarda ma'rifat hosil qilishning muhim (sinergetik) strategiyasi aks etadi: bu o'zaro zid ikki olam munosabatlariga bir narsaning ikki tomoni sifatida yondashishdir.

Xulosa

Demak, asarning avval yuzaga chiqmagan, mohiyatiga daxldor belgilarini topish va umuman badiiy matn tahlili va talqini yuzasidan tasavvurni, nazmning murakkab tizimini o'rganish rakursini o'zgartirish sinergetik yondashuv vositasida real ahamiyat kasb etadi. Sinergetik matn – bu bir qancha tub, bevosita kuzatilmagan, botiniy, transsendent ma'nolardan iborat bo'lib, ular leksemalarning lug'aviy ma'nolaridan aniqlanmaydi hamda matnostining notekis munosabatlari va jarayonlari majmuini namoyon etadi. Bu esa badiiy matn poetikasi tahliliga ontologik yondashish zaruratini tug'diradi. Sinergetikaning nazariy-metodologik izlanishlari natijalari asosida filologiya muammolari yechimida universal yondashuvlarni ishlab chiqish matn ontologik poetikasi talqini modellarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Semiosinergetik tizim modellari ostidagi paradigma istiqbolda badiiy matndagi timsollar tizimi, badiiy matn yaxlit tizimi botiniy qatlamidan asl ma'noning chiqarilishi, tahlil yo'llari belgilanishi, asar immanent muammolari talqinida metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Асратян, З. Д. 2016. «Синергетические аспекты художественного текста». *Вестник Вятского государственного университета* 65-69. Филологические науки.
- Aleferenko, N. F. 2009. "Diskursivnaya sinergetika 'zhivogo' slova" [Discourse Synergetics of Word 'Alive']. *Lingvisticheskie aspekty prepodavaniya inostrannyh yazykov: materialy II mezhdunarodnoi nauch. konf.* 5–6. Belgorod.
- Буданов, В. Г. 2009. *Методологическая синергетика в постнеклассической науке и в образовании*. Изд. 3-е. Москва: Издательство ЛКИ.
- Бранский, В. П. 1999. «Социальная синергетика как постмодернистская философия истории». *Общественные науки и современность* 6: 117-127.
- Домброван, Т. И. 2016. «Лингвосинергетика: новое направление филологических студий». *Филологические науки* 6: 50-56.
- Эркинов, А. 2018. *Алишер Навоий "Хамса"си талқини манбалари (XV-XX аср боши)*. Тошкент: Тамаддун.
- Ибн Араби. 2013. *Избранное*. Т. 1. Перевод с арабского, вводная статья и комментарии И. Р. Насырова. Москва: Языки славянской культуры: ООО Садра. 216. (Философская мысль исламского мира: Переводы.

Т. 1).

- Муратова, Е. Ю. 2013. «Синергетический подход к анализу поэтического текста». *Литературоведение в контексте современной науки: проблемы методологии*. 25-30.
- Pichtownikowa, L. 2014. *Synergie des Fabelstils: Die deutsche Versfabel vom 13.-21. Jahrhundert*. L. Pichtownikowa. Aachen: Shaker Verlag, 2008.
- Піхтовнікова, Л. «Синергетическая парадигма в современной лингвистике». Серія: *Філологічні науки (мовознавство)* 127: 34-39. Кіровоградський державний педагогічний університет імені Володимира Винниченка [КДПУ].
- Сирожиддинов, Ш. 2011. *Илм ва тахаййул сарҳадлари*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Сирожиддинов, Ш. 2008. *Ислом фалсафасига кириш: калом илми*. Тошкент.
- Сирожиддинов, Ш. 2019. *Навоий ақидалари*. Тошкент.
- Тураев, Б. О., Эргашева, М. Х., Раҳмонова, Б. У., Мўминова, З. О., Очилов Ж. 2017. *Синергетика: моҳияти қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши*. Тошкент: Наврўз.
- Саяпова, А. М. 2010. «Восток и Запад: духовная связь как синергетический тип мышления». *Филология* 1 (19): 1-8. Вестник ТГГПУ.
- Швейцер, А. Д. 2009. «Теория перевода». В книге *Статус. Проблемы. Аспекты*, 164-165. Москва: Либроком.

Rano Tashniyazova

(Tashkent, Uzbekistan)

ranotoshniyozova.77@bk.ru

The Importance of Synergetics in the Study of Fiction

Abstract

The synergetic theoretical and methodological approach is a universal scientific paradigm of the universe, created and developed by crossing three areas: nonlinear modeling, applied philosophy and knowledge in a specific science. The synergetic method plays an important role in determining models of the ontological poetic interpretation of fiction. The nature of instability and contradictions in complex systems is the basis for synergetic research. The interpretation of literary texts corresponding to the characteristics of such a system requires the application of general laws of existence. In a synergetic context, the problem of self-creation, the ordering of meaning is investigated. During the dialogue of the recipient with fictional text, the dynamic state of a complex system is determined. There are synergetic principles of text formation, literacy and existence that obey universal laws which are common to all systems of existence. This article presents forms of synergetic sequencing.

In the synergy of the text there are three basic principles of the emerging system: inaccuracy, openness, instability. Hamsa's verses are a system of self-organizing microscopes as a result of the simultaneous rounding of terms of the semantic medium based on several competing scenarios. A microscript is the smallest unit of a text program that is formed by speech. These microscopes become macromolecules, which, in turn, form the main theme of the work. Synergetic theory has the term criterion of order, which is considered as a central concept.

Key words: artistic texts, synergetic aspects of the text, textology, methodology, philosophical and artistic thought, bifurcation, fraktals, taboyi.

About the author: *Rano T. Tashniyazova* – PhD student, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

For citation: Tashniyazova, R. T. 2019. "The Importance of Synergetics in the Study of Fiction". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 40–56.

References

- Asratjan, Z. D. 2016. "Sinergeticheskie aspekty hudozhestvennogo teksta". *Vestnik Vjatskogo gosudarstvennogo universiteta* 65-69. Filologicheskie nauki.
- Aleferenko, N. F. 2009. "Diskursivnaya sinergetika 'zhivogo' slova" [Discourse Synergetics of Word 'Alive']. *Lingvisticheskie aspekty prepodavaniya inostrannyh yazykov: materialy II mezhdunarodnoi nauch. konf.* 5–6. Belgorod.
- Budanov, V. G. 2009. *Metodologicheskaja sinergetika v postneklasicheskoy nauke i v obrazovanii*. Izd. 3-e. Moskva: Izdatel'stvo LKI.
- Branskij, V. P. 1999. "Social'naja sinergetika kak postmodernistskaja filosofija istorii". *Obshchestvennyye nauki i sovremennost'* 6: 117-127.
- Dombrovan, T. I. 2016. "Lingvosinergetika: novoe napravlenie filologicheskikh studij". *Filologicheskie nauki* 6: 50-56.
- Jerkinov, A. 2018. *Alisher Navoiy "Hamsa"si talqini manbalari (XV-XX asr boshi)*. Toshkent: Tamaddun.
- Ibn Arabi. 2013. *Izbrannoe*. T. 1. Perevod s arabskogo, vvodnaja stat'ja i kommentarii I. R. Nasyrova. Moskva: Jazyki slavyanskoy kul'tury: OOO Sadra. 216. (Filosofskaja mysl' islamskogo mira: Perevody. T. 1).
- Muratova, E. J. 2013. "Sinergeticheskij podhod k analizu pojeticheskogo teksta". *Literaturovedenie v kontekste sovremennoj nauki: problemy metodologii* 25-30.
- Pichtownikowa, L. 2014. *Synergie des Fabelstils: Die deutsche Versfabel vom 13. 21. Jahrhundert*. L. Pichtownikowa. Aachen: Shaker Verlag, 2008.
- Pihtovnikova, L. "Sinergeticheskaja paradigma v sovremennoj lingvis-tike". Seriya: *Filologichni nauki* (movoznavstvo). 127: 34-39. Kirovograds'kij derzhavnij pedagogichnij universitet imeni Volodimira Vinnichenka [KDPU].
- Sirozhiddinov, Sh. 2011. *Ilm va tahajjul sarhadlari*. Toshkent: Jangi asr avlodi.
- Sirozhiddinov, Sh. 2008. *Islom falsafasiga kirish: kalom ilmi*. Toshkent.

- Sirozhiddinov, Sh. 2019. *Navoiy aqidalari*. Toshkent.
- Turaev, B. O., Jergasheva, M. H., Rahmonova, B. U., Muminova, Z. O., Ochilov, Zh. 2017. *Sinergetika: mohijati qonunijatlari va amaliyotda namojon bulishi*. Toshkent: Navruz.
- Sajapova, A. M. 2010. "Vostok i Zapad: duhovnaja svjaz' kak sinergeticheskij tip myshlenija". *Filologija. Vestnik TGGPU* 1 (19): 1-8.
- Shvejcer, A. D. 2009. "Teorija perevoda". In: *Status. Problemy. Aspekty*, A. D. Shvejcer, 164-165. Moskva: Librokom.